AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LANDSHAFTSHUNOSTLIK FANINI O'QITISH METODIKASI

Shirinova Muqaddas Shavkat qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida landshaftshunostlik fanini o'qitish metodikasini modulli ta'lim texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mulohazalar keltirilgan. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish jarayoni bo'yicha fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Landshaft, metodika, interfaol metodlar, pedagogik asoslar, keys-stadi metodi, aqliy hujum metodi.

Аннотация: В данной статье представлены комментарии к педагогическим основам совершенствования методики преподавания ландшафтоведения в высших учебных заведениях. Обсуждались мнения о процессе обучения в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Ландшафт, методика, интерактивные методы, педагогические принципы, кейс-метод, метод мозгового штурма.

Abstract: This article presents comments on the pedagogical foundations of improving the teaching methodology of landscape science in higher educational institutions. Opinions on the teaching process in higher education institutions were discussed.

Key words: Landscape, methodology, interactive methods, pedagogical principles, case-study method, brainstorming method.

Oliy ta'lim muassasalarida geografiya yo'nalishi talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning kasbiy malakasiga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini aks ettiradigan modelini tuzish uchun modellashtirishga nisbatan umumiy yondashuvlarni, uning tuzilishidagi asosiy tarkibiy qismlarni guruhlarga birlashtirish tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash zarur.

Model - deganda tadqiq qilinishi qiyin yoki umuman mumkin bo'lmagan boshqa hodisaga o'xshash bo'lgan, o'rganish uchun sun'iy yaratilgan hodisa (jism, jarayon, vaziyat) tushuniladi. Shunga ko'ra, modellar tadqiqot ob'ektlarining analoglaridir, chunki ular bu ob'ektlar bilan o'xshash, lekin bitta narsa emasligini I.B.Sultonova o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o'tgan[1; 28-b.].

Modellashtirishga umumiy yondashuv va uning strukturasining asosiy tarkibiy qismlarini guruhlarga bo'lish tamoyili, kasbiy malakaga qo'yiladigan joriy talablarni aks ettiruvchi nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish modelini yaratish uchun nazariy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasiga ham bog'liq.

M.B O'razovaning ta'kidlashicha, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda nutqda ishlatiladigan imo-ishoralar, yuz ifodalari, tabassumlar va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak, chunki aynan mana shu og'zaki bo'lmagan xulq-atvor elementlari o'zaro ta'sir jarayonida ma'lumotlarning ko'p qismini o'z ichiga oladi va ko'pincha turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida tushunmovchilikni keltirib chiqaradi [2; 128-b.].

Dars jarayonida video materiallardan foydalanish talabaning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkon beradi va chet tilini o'rganish jarayonida ayrim kamchiliklarni bartaraf etish, chet tilida muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va aniq kasbiy yunalishga ega bo'lishi imkonini beradi.

E.I.Sutovichning qayd etishicha, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birgalikda madaniyatlararo kompetensiya ham rivojlantirish o‘z navbatida kasbiy faoliyatning rivojlanishiga ham yordam beradi[3;103-111-b.].

E.F.Zeerning tarificha, kasbiy kommunikativ kompetensiya atamasining tarifidan kelib chiqib uning modelini yaratishda, eng avvalo kompetensiya shaxsning xususiyatlari va tarkibiy qismlaridan kelib chiqqanligini inobatga olish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy qilish orqali kasbiy kommunikativ kompetensiya rivojlanganligini model orqali aks ettirish mumkin[4; 86-88-b.].

Qobiliyat, sodda qilib aytganda, tug‘ma xususiyatlardan, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan istedotdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida rivojlangan kasbiy kommunikativ kompetensiya, shuningdek, atrof- muxit bilan uzaro ta’sir qilishning ma’lum modellarini (uz xususiyatlarini o‘tkazish, egallash va rivojlantirish) o‘z ichiga olishi kerak. Modelni tuzishda umumiy darajada metodlar, masalan: o‘rganish, muloqot qilish, qaror qabul qilish, jamoada ishlash; muayyan darajada chet tillarini bilish yoki elektron pochtadan foydalanish kabi xususiyatlardan foydalanishi shart.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ta’lim shakillarining barcha omillarini hisobga olish, xorijiy tillarni o‘rganishga asoslangan materiallaridan foydalangan holda kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan.

Ushbu model maqsadli, tashkiliy- metadologik, mazmuni, didaktik jarayon, baholash diagnostik kompanentlarga asoslangan bo‘lib, maqsadi kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari asosida tuzilgan ushbu modelning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o‘qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577

2. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)